
“Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakati doirasida ehtiyojmand oilalarga shu kungacha 830 000 000 so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berildi



“Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakati doirasida ehtiyojmand oilalarga shu kungacha 830 000 000 so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berildi

Asli mehr-oqibat, hamjihatlik, hamdillik kabi insoniy xislatlar bizning millatimizga begonamas. Zotan, “Odam taftini odam ko‘taradi” degan maqol ham bejizga aytilmagan. Koronavirus pandemiyasi tufayli shirin lahzalarga boy bo‘lgan diydorga, samimiy so‘hbatlarga limmo-lim uchrashuvlarga mushtaq bo‘lib qolgan ko‘ngillar qancha. Ayniqsa, ushbu hissiyot bemorlarda, kasallik yostig‘iga mixlanib qolgan insonlarda kuchli bo‘ladi. “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakati doirasida keksa-nuroniylar, xastalikka chalingan bemorlar holidan xabar olish maqsadida tumanimizda yana bir savobli ishga bel bog‘landi. Tumanning Qal‘acha, G‘aznov, Sohibkor, Tul mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi 9 nafar fuqarolarga bepul dori-darmon vositalari yetkazib berildi.



Nusratov Bobonusrat Qal'acha mahalla fuqarolar yig'inida yashaydi. Mana bir necha yildirki, xastalik sabab yostiqaqqa mixlanib qolgan. Lekin otaxon bugungi tibbiyot sohasi xodimlari faoliyatidan minnatdor. Chunki shifokorlar Bobonusrat-bobo holidan hamisha xabar olib turishadi. "Men ham butun umrimni shu mas'uliyatli kasb - shifokorlikka bag'ishladim. Mingdan-ming rahmat bizga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rliklarga. Ro'zai ramazon ayyomida shifokorlarimiz tomonidan qilingan bunday ezgu amallar bizni juda quvontirdi" - deydi bizga yuzlanib bobo. Shu kuni fuqarolarga 1 million 420 ming so'mlik dori-darmon vositalari yetkazib berildi.



Shuningdek, birinchi sektor hududidagi Devayron mahalla fuqarolar yig'inida umrguzaronlik qilayotgan kam ta'minlangan va ijtimoiy ko'makka mo'htoj oilalarga ham oziq-ovqat mahsulotlari - un va o'simlik yog'i yetkazib berildi. Mahsulotlarni aholiga yetkazishda bevosita ishtirok etgan tuman hokimi Farrux Usarov va tuman prokurori Farhodjon Abduvalievlar fuqarolarga mana shunday kunlarda sabrli bo'lish lozimligi, karantin talablariga rioya etgan holda tomorqadan samarali foydalanish uchun mehnat qilish kerakligini tushuntirishdi.



Bizga yetgan ma'lumotlarga ko'ra, shu kungacha tuman miqyosida kam ta'minlangan, ehtiyojmand, ijtimoiy ko'makka mo'htoj oilalarga 830 000 000 so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari va dori-darmon vositalari yetkazib berilgan. Sux tumanida "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati doirasida xayrli ishlarni amalga oshirish jarayonlari davom etayapti.

Sux tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-05-02 16:28:36